

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNI MIQDORLAR BILAN TANISHTIRISH

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Amaliy matematika va fizika fakulteti 1-kurs talabasi

Abrayev Madaminbek Bekmurza o'g'li

Annotatsiya: *Ushbu boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni miqdorlar bilan tanishtirish, o'quvchilarning «miqdor» va «raqam» tushunchalarini aniq farqiga bora olishlari yuzasidan fikr bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *O'quvchi, ta'lim, miqdor, raqam, o'lchamlar, jadval, misol, masala, qiymat, masofa, yechim.*

Miqdorlar, xuddi raqamlar kabi boshlang'ich sinflarda matematika mashg'ulotlarinig asosiy tushunchasi bo'lib, bolalarda miqdor haqida predmetlar va voqelikka aloqador va o'lchov bilan bog'liq sifat tasavvur uchun foydalaniladi.

O'quvchilar 1–4-sinflarda uzunlik, massa, (og'irlik) hajm, vaqt va ularning o'lchov birliklari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Misollarni yechish jarayonida ular baho, qiymat, miqdor, narx, tezlik, masofa, unumdorlik tushunchalari bilan tanishadilar.

Mavzuni o'rgatish jarayonida shunga erishish zarurki, o'quvchilar o'zaro bog'liq, ammo mutlaqo boshqa-boshqa mazmunga ega bo'lgan «miqdor» va «raqam» tushunchalarini aniq farqiga bora olishlari kerak. Masalan, sim o'ramidan bir bo'lak kesib olib, o'lchash birligi detsimetrdan foydalanib, 1 dm, 2 dm, 3 dm, 20 dm. kabi uzunliklarni belgilab boramiz. Ya'ni mazkur o'lcham birligini sim uzunligi bo'yicha ketma-ket qo'yish bilan o'lchaymiz va tegishli nomi bilan - (20 dm) yozib qo'yamiz. Agar boshqa o'lcham birligi, masalan, santimetrdan foydalangan bo'lsa, miqdorning raqam belgisi o'zgacha bo'lganiga erishamiz. Bu raqamni ham tegishli nomi bilan (200 sm) yozib qo'yamiz. Metr o'lcham birligidan foydalansak, mazkur miqdorning yana bir raqamli ko'rinishga ega bo'lamiz (2 m).

Miqdor va son (raqam) iboralarini qo'llash bilan bog'liq boshqa mashqlar ham shu kabi aniq va tushunarli ifodalanishi kerak. Masalan; «385 va 481 sonlarini qo'shing», yoki «3 m 85 sm hamda 4 m 81 sm miqdorlarni qo'shing» kabi.

U yoki bu miqdor haqida tasavvurni shakllantirish va ularni o'lchash usullari o'ziga xoslikka ega bo'lsa ham, har bir miqdorni o'rganishda umumiy bosqichlarni alohida ta'kidlash maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'qituvchi har bir miqdorlarni o'rganish jarayonida ana shularga tayanib, o'quvchilar faoliyatini quyidagicha tashkil etishi mumkin.

Miqdorlarni o'rgatish bo'yicha metodik tavsiya:

1. O'quvchilarda mavjud mazkur miqdorlar haqidagi tushunchalarni aniqlash (o'quvchilarning hayotiy tajribasiga murojaat etish).
2. Bir xil nomli miqdorlarni solishtirish (chamalab ko'rinish, solishtirish, taqqoslash, o'lchash va boshqa xil usullar bilan).

3. Mazkur miqdorning o'lchov birligi va o'lchov asboblari bilan tanishtirish.
4. O'quvchilarda o'lchash ko'nikmalari hosil qilish.
5. Bir xil nomdagi miqdorlarni qo'shish va ayirish. (Masalalarni yechish jarayonida).
6. Miqdorlarning yangi o'lchov birliklari bilan tanishtirish, bir nomdagi miqdorlarni boshqa o'lchov birliklariga aylantirish. Ikki bir xil nomli o'lchov birliklarini bitta ikki nomli o'lchov birligiga aylantirish va aksincha.
7. Ikki xil nomli miqdorni qo'shish va ayirish.
8. Miqdorlarni sonlarga ko'paytirish va bo'lish

Boshlang'ich sinflarda miqdorlarni (miqdori, bahosi, narsalar miqdori ya'ni soni, qancha turishi va hokazo) arifmetika bilan uzviy bog'liqlikda o'rgarish katta ahamiyatga ega. Miqdorlarni o'rgatishda ularni o'lchash usullari, tegishli o'lchov birliklari va ular orasidagi munosabatlar, miqdorlar orasidagi (eng soddalari yordamida ifodalangan) bog'lanishlar qaraladi. Masalan, "Hamma sotib olingan narsa qancha turishini bilish uchun narsaning bahosini narsalar soniga ko'paytirish kerak" ekanini bolalarga og'zaki tushuntiriladi. (Bunda aslida formulalar yozilmaydi). Shu bois masalalarni tanlashda bu bog'lanishlarni ochib beruvchi masalalarga alohida e'tibor berish kerak.

Masalan: jadval asosida tuzilgan masala orqali miqdor haqida o'quvchilarga tushuncha berilib, masala ishlanadi.

Bahosi	Miqdori	Jami pul
8 so'm	2 ta	?

Ushbu masaladan kelib chiqqan holda jami sotib olingan narsa qancha turishini bilish uchun, narsaning bahosi 8 ni narsalar soni ya'ni miqdori 2 ga ko'paytirish kerak. Agar, jami pul (so'm) ma'lim ya'ni 54 so'm, miqdori ma'lum ya'ni 6 ta bo'lsa, 1 donasining narxini topish uchun jami pul 54 ni miqdor 6 ga bo'linadi. Yechish: $54 : 6 = 9$

Miqdor, narx va baho orasidagi bog'lanishni yaqqol ko'rinishda tasvirlash uchun jadval tuzish va unda, masalan, qalamlarni sotib olish ma'lumotlarini keltirish foydalidir:

Bahosi	Miqdori	Narxi(jami pul)
9 so'm	3 ta qalam	?
<u>9 so'm</u>	<u>? ta qalam</u>	<u>27 so'm</u>
?	3 ta qalam	27 so'm

Bu jadvalning har bir satri bo'yicha o'quvchilar sodda masala tuzadilar, uni yechadilar va masalada nima ma'lum va nimani aniqlash kerakligini aniqlaydilar. Masalan, qalamlar miqdorini bilish uchun nimani bilish zarur? (bahosi va narxini) Bizga nima ma'lum?(bahosi.) Qalamlar miqdorini qachon bilib olamiz? "Qalamlar miqdorini (sonini) bilish uchun biz qalamlar narxi (27 so'm) ni qalamlar bahosi (9 so'm) ga bo'lamiz ($27 : 9 = 3$). Shunday qilib, qalamlar miqdori ya'ni soni kelib chiqadi.

Bolalarni masalalarning bahosi va miqdori bo'yicha umumiy narxni, umumiy narx va bahosi bo'yicha miqdorni, umumiy narxi va miqdori bo'yicha bahosini aniqlash mumkinligi to'g'risidagi umumlashtirishga olib kelinadi.

Boshlang'ich sinflarda miqdorlar, o'lchov birliklarini o'rgatishdan maqsad shundaki, o'quvchilarga kichik yoshidan boshlab, miqdorlar va o'lchov birliklari haqida sodda va lo'nda tushunchalar berishdir.

Bu mavzuni o'rgatishda turli zamonaviy usullardan, ko'rgazmalar, testlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu usullar matematika darslarida o'quvchilarni fikrlashga, izlanishga, zukkolikka, epchillikka o'rgatadi. Og'zaki, yozma savodxonlik, mustaqil fikrlay olish qobiliyati va nutqi rivojlanadi. O'quvchilarda o'zaro hurmat hissi uyg'onadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, masala va topshiriqlar ustida ijodiy fikrlash va xulosalar chiqarish uchun o'qituvchi darsda o'quvchilarga turli xildagi fikrlashga undaydigan topshiriqlar, masalalar berishi, krossvord, rebuslar yechishga o'rgatishi lozim.

Darsda o'quv materiallaridan tashqari turli axborot manbalari hisobiga bilimni o'stirib borish, ayniqsa, yangi axborotlar orqali hozirgi zamon ta'lim islohotlarini to'g'ri tushunishga oid ko'nikma va malakalarini hosil qilish bugungi kun pedagoglarining oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shunday ekan, har bir dars o'z mazmuniga ko'ra o'quvchilarning bilim olishga qiziqishini ko'paytirishga va ularning o'z bilimlarini mustaqil ravishda to'ldirish ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgan darajada bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumayev M. Matematika. O'qituvchi kitobi. - Toshkent: 2003 yil.

2. Bikboyeva N.U. va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. - Toshkent: O'quv qo'llanma. 2006 yil.

www.bilimdon.uz

www.edu.uz